

“QUSH TILI” XALQARO ANTOLOGIYASI XUSUSIDA
FIKR MULOHAZALAR

Roviyajon Abdullayeva

Turon FA ning faxriy akademigi
filol.f.doktori, O‘zDJTU professori

Email: rovijajon47@mail.ru

Gyote G‘arb va Sharq she‘riyatida mushtarak nuqtalarni topib o‘zaro yaqinlashtirishni orzu qilgan. U “*G‘arbu - Sharq devoni*” da ohangaro nazmimizga ehtiromini izhor qilgan. Ammo, davlatlar o‘rtasidagi “*Iskandar devori*” uzoq vaqtlargacha yer yuzining turli burchaklarida yashayotgan shoirlarning bir - birlarining estetik qarashlaridan voqif bo‘lishlariga imkon bermay keldi. Istiqoldan so‘ng shu g‘ovlar yo‘qoldi. Yevropa she‘riyati bor bo‘y - basti bilan ko‘z o‘ngimizda qad rostlagani quvonarli hodisa.

Mamlakatimizda keyingi yillarda Xalqaro doirada ko‘p tillik she‘riy antologiyalar yaratish an‘anaga aylanib bormoqda. Chunonchi, “*Tanishuv*”, “*Ilonbaliq*”, “*Lorelay*”, “*Bermang halal orzularimga*”¹ va “*Qush tili*”² antologiyalari shular jumlasidandir. Biroq, afsuski, shu paytgacha matbuotda bu nashrlar tarjimalari tahlil etilgan birorta maqola yoki taqriz e‘lon qilinmadi. Yetti tilda chiqqan “*Qush tili*” xalqaro antologiyasi A. Navaoiyning 570 va Mustaqillikning 20 yilligiga bag‘ishlangani ozodlik nishonasidir.

Taniqli shoir va tarjimon A‘zam Obidov kitob so‘zboshisida bir voqeani muqoyasa qiladi: “*...Nigeriya davlatidan kelgan hamkasbim o‘zbekistonlik kishi bilan ilk bor ko‘rishayotgani, ammo bu yurt haqida qachonlardir qaysidir kitobda o‘qigani, xususan, o‘zbeklarning “ko‘pkari”si to‘g‘risidagi hikoya uning xotirasida hamon saqlanib turganini to‘lqinlanib gapirib berdi. O‘sha safar asnosida Nyu - Jersidagi Rovani Universiteti rektori Firdavsiy va Hofizning go‘zal bezakli qalin kitoblarini ko‘rsatib, shoirlarning g‘azallaridan baytlar o‘qib, ularni sharhlab bergani menda katta taassurot qoldirdi. Insoniyat hech qachon kitob o‘qishdan to‘xtamaydi, deya ishinging keladi kishi. Biroq, “Kitob - boyluk, ammo sotib olingani emas, o‘qilgani” degan gap ham bor.*”³

Chindan ham, kitob vositasida dunyo xalqlari milliy madaniyatlar borasida tushuncha hosil qiladilar. She‘riyatga ishtiyoq tilga ehtiyoj samarasidir. She‘riyat til mo‘jizalarini namoyon etadigan, badiiy tafakkur yuksakliklarini tasvirlaydigan san‘at turidir.

¹ Tanishuv (Kennenlernen).– Toshkent.“O‘qituvchi”.2000.–B.88; Ilonbaliq.Lasst mir meine Träume (Deutsch - usbekische Anthologie Freiburger Lyrikerinnen).– Freiburg. 2008.– S.163; Lorelay. Nizomiy nomidagi TDPU. – Toshkent. 2010. – B.304;

² The Language of the Birds International poetry anthology Tafakkur. – Toshkent. 2011. – B. 256.

³ O‘sha manba. – B.5.

Alisher Navoiy “*Lisonut tayr*” dostonida bolaligida F. Attor (1150-1220) ning “*Mantiqut tayr*” asaridan mutassir bo‘lib, boshqa dostonlarga mayli so‘nganini quyidagi baytlarda xotirlagan:

Manga ul holatda tab’i bulhavas,
“*Mantiqut - tayr*” aylab erdi multamas.

Topdi sokin-sokin ul takrordin,
Soda ko‘nglim bahra ul guftordin.

Tab’ ul so‘zlarga bo‘lg‘och oshno,
Qilmadi mayl o‘zga so‘zlarga yano.⁴

Yosh Alisherbek so‘z sehr - jodusiga shu qadar asir bo‘ladiki, odamzot hayoti unga zerikarli tuyula boshlaydi. G‘aroyib dostonni boshdan - oyoq yodlab oladi va umrining so‘nggi yillarida mazkur asarga javoban, “*qushlar dunyosi*”ga yuzlanib, “*Lisonut tayr*” dostonini bitganidan voqifmiz.

Hozir jahon adabiyotida bu usul (ijodiy ta’sirlanish) samarali qo‘llanmoqda. Biror durdona asarga tatabbu’ (o‘xshatma) bag‘ishlash yoki obrazlardan ayrimlarini saqlab qolgan holda davomini bitish usullari faqat adabiyot foydasiga ishlarimoqda. Zotan, qalam ahllari orasidagi hamrozklik tuyg‘usi so‘z san’ati umrboqiyligi yo‘lida xizmat qilishi bor gap. Nazarimizda, ushbu xalqaro antologiyani nashr qilishdan ikki maqsad ko‘zlangan. *Birinchisi*, Alisher Navoiy she’riyatini XXI asr jahon she’riyati bilan bog‘lash, *ikkinchisi*, sayyoraning turli burchaklarida yashayotgan nazmkashlarni o‘zaro tanishtirish.

G‘arb adabiy doiralari Navoiyni salaflariga nisbatan kechroq tanigan. Jahon miqyosida fors shoirlari qadimdan dovuq taratganini bilamiz. A. Navoiyni Yevropa uchun A. Kurella qayta kashf etdi, desak mantiqqa monandir. Ikkinchi jahon urushi arafasida Toshkentga tashrif buyurgan A. Kurella mumtoz shoirimiz ijodiga ixlos ila yondoshdi. U Navoiy tavalludining 500-yilligiga ajoyib sovg‘a tayyorlash niyatida, yevropaliklar nigohini o‘zbek so‘z afsungari ijodiga qaratish uchun tarjima jarayoniga bel bog‘ladi.

Adabiyot yumushlari eng avvalo siyosat bilan bog‘liq. Faqat tinchlik qaror topgan davrdagina *So‘z san’ati* gurkiraydi, yuksak darajada anglanadi va qadrlanadi. Hazrat Navoiy bu to‘g‘rida “*Lisonut tayr*” dostonining yakunida shunday deydi:

Kinga bo‘lsa mundoq ishlar niyati,
Bo‘lmas ul bo‘lmay zamon amniyati⁵

⁴ Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. 12 tom. *Lisonut-tayr*. O‘zR FA .Fan. –Toshkent. 1996.

⁵ Amniyat - (arab) “xavf - xatardan aminlik, xavfsizlik, bexavotirlik”. O‘zbek tilining izohli lug‘ati.

Bu zamon amniyatini qilma gumon,
Sobit o‘lmay adli Doroyi zamon.⁶

Buyuk mutafakkir yaqin do‘sti, temuriy zoda podshoh Husayn Boyqaroni Eron shohi Doroga qiyoslab, uni **“Zamon Dorosi”** deya ta’riflamoqda. Xotima qismidagi maqtovlarda esa shoir o‘z missiyasini ado etishida hukmdorning roli ulkan bo‘lishini tasdiqlaydi. Ma’lumki, A. Navoiy nisbatan tinchroq zamonda yashagan. Uning vafotidan so‘ng Shaybonixon Xuroson va Movaraunnahrga bostirib kirib, bu hududlarda temuriy zodalar hukmronligiga chek qo‘yadi. Z.M. Bobur esa Hindistonga bosh olib ketishga majbur bo‘ladi. Xulosa shuki, adabiyot rivoji uchun tinchlik, osudalik suv va havodek zarur. Amniyat yo‘q joyda tashabbus chechlari so‘lib, qovjirashi aniq.

Istiqlolga erishgach, Alisher Navoiy ijodi chin ma’noda ardoq topdi. I.A. Karimovning adabiyot va ma’naviyat haqidagi nutqlari va kitoblarida ham bu o‘z ifodasini topgan. **“Agar bu ulug‘ zotni avliyo desak, u avliyolarning avliyosi, mutafakkir desak, mutafakkirlarning mutafakkiri, shoir desak, shoirlarning sultonidir”**⁷ degan e’tirof hayratbaxshdir.

Tinch - totuvlik barqaror bo‘lgan davrdagina So‘z san’ati yuksak darajada qadrlanadi, dedik. Darvoqe, Navoiy tug‘ilib - o‘sgan Afg‘oniston hududidagi notinchlik, xunrezlik, aqidaparastlik oqibatida kelib chiqqan ma’naviyatsizlik, xususan, afg‘on o‘zbeklari adabiyoti taraqqiyotini orqaga surib yuborgani ayni haqiqat. Negaki, biz bu hududda yashayotgan biror bir mashhur o‘zbek shoirini tanimaymiz. O‘zbekistonda adabiyotning oltin davri ibtido topgani, adiblarning jahon doirasiga chiqishga intilayotganliklari Istiqlol sharofatidandir. Bu intiluv jarayoni Navoiy ijodining jahon miqyosidagi targ‘iboti, tashviqoti ila nurlantirildi. **“Qush tili”** antologiyasi jahonning turli mamlakatlariga goh pochta, goh mehmon adiblaru, noshirlar orqali tarqatilganidan voqifman. Antologiyaga kirgan shoirlarning yashash manzillari: **AQSH, Kanada, Kolumbiya, Venesuela, Argentina, Ekvador, Chili, Kosta - Rika, Urugvay, Buyuk Britaniya, Shveysariya, Gretsiya, Ispaniya, Slovakiya, Bolgariya, Norvegiya, Polsha, Rossiya, Turkiya, Hindiston, Iroq, Iordaniya, Gonk - Kong, Misr, Isroil, Liviya, Janubiy Afrika Respublikasi, Kamerun, Yangi Zelandiya...**Jahonning 50 ga yaqin mamlakatida yashab, qalam tebratayotgan shoirlar she’rlari 7 tilda jam bo‘lgani o‘zbek matbaachiligi yutug‘idir. Shu usulda Hazrat Navoiy she’rlari yetti iqlimga taqdim etilmoqda. A.Navoiyni jahon shoirlari sardori deyishga haqlimiz. Uning asarlari asrlarni va hududlarni **“hatlab”** o‘taverishga qodir.

“Rus tili” nashriyoti.– M., 1981. – B.44.

⁶ A. Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. 12 tom. “Lisonut-tayr”.O‘zR FA . Fan. –Toshkent. 1996. – B. 300.

⁷ Karimov I. A., Yuksak ma’naviyat - yengilmas kuch. Ma’naviyat. – Toshkent. 2008. – B. 47.

Kitobni o‘qib, bugungi kun jahon she‘riyati darajasini his etasiz. Turlicha yo‘nalish, obrazlar silsilasi, turlicha shakllar qurulishi mazkur majmuada rang talashganiga guvoh bo‘lasiz. Ammo, shu jihat ham borki, hozirgi vaqtda she‘rlarni nozik qirralarigacha ilg‘ab, mutolaaga kirishish amali tansiqlanmoqda. Tadqiqotlarga ehtiyoj kuchli. Shu bois majmua tashkilotchilari teran adabiy - tanqidiy maqolalar turkumiga murojaat qilganlar. Antologiya debochasida ingliz tilida ikkita tadqiqot o‘rin olgan. *Birinchi*, kanadalik navoiyshunos Garri Dik, *ikkinchi* shoira Tursunoy Sodiqova qalamiga mansub⁸. Olimning “*Lisonut tayr*”ning nasriy bayonini ingliz tiliga o‘g‘irgani g‘aroyib hodisadir. Okean orti olimining boshqa mentalitetga xos yurt shoiri ijodiga ixlos qo‘ygani adabiyotning millatlararo do‘stlik ko‘prigi vazifasini ado etishidir.

Garri Dikning “*Nega dunyoimiz Alisher Navoiydek shoirlarga muhtoj?*” tadqiqoti Bryus Kokbernning “*Balkim Shoir...*” sarlavhali she‘ri bilan boshlangan. Matnda nima uchun bizga shoirlar kerakligi lirik ohangda ifodalangan. Kitob “*O‘lib borayotgan dunyoimiz*”, “*Alisher Navoiydek shoirga ehtiyoj*”, “*Bizning ‘shoir tarjimon’ larga ehtiyojimiz*” va “*Kitobxon shoir’larga ehtiyoj*” deb nomlagan fasllardan iborat. “*Alisher Navoiydek shoirga ehtiyoj*” faslida Garri Dik Navoiyning O‘rta Osiyo she‘riyati taraqqiyotiga ta‘sirini akademik Baxtiyor Nazarovdan iqtiboslar bilan dalillaydi. “*Men O‘rta Osiyoda topgan ruhoniylari buyuk shoirlardan biri, ‘mening shoirim’ Alisher Navoiydir...*” deydi. Suyukli shoiramiz Tursunoy Sodiqovaning “*Navoiy gulshani*” maqolasi xorijliklarni qiziqtirishi mumkin. Zero, uning Navoiy gulshanidan terib olgan nafis gullarning nozik talqin va tahlillari, diqqatga sazovordir.

Majmuaga “*Qush*” haqidagi yoki “*Qush*” so‘zi qo‘llangan she‘rlar jamlangan. Navoiy ijodi ma‘nosida bu shartlar istisno qilinibdi. Navoiyning turli tillardagi ruboiylari, g‘azallari, aforizmlari xorijliklar uchun “*ochqich*” vazifasini o‘tashi tabiiy. Garchi, u sayyoramizning eng kuchli shoirlari qatorida e‘tirofqa loyiq ko‘rilayotgan bo‘lsa-da, ijodidan jahon she‘rshunoslari to‘liq bahramand bo‘layotganlari yo‘q. Qiyosan aytilsa, Gyotening “*Faust*”, “*Yosh Verterning iztiroblari*”, “*G‘arbu Sharq devoni*” asarlari o‘zbeklarning dil mulkiga aylangan. O‘zbeklar Gyote ijodi bobida yetuk tasavvurga ega deyish mumkin. Navoiy ijodi esa uzoq tanaffuslar bilan nemis yurtiga endigina kirib bormoqda.

“*Lisonut-tayr*”ga “*Foniy*”, ya‘ni “*O‘tkinchi*” deya imzo chekkan shoir doston yakunida Ollohga murojaat qilib, deydi:

Yo rab, ushbu sho‘xi dilfirib

Kim oning vaslin manga qilding nasib

⁸ Cary Dyck. Why our World Needs Poets like Alisher Navoi. P. 6-11; Sodiqova. T. Navoi’s Blooming Garden. – P. 12-19.

⁹ O‘sha manba. – B. 6-11.

*El ko‘ziga dog‘i mahbub aylagil
Barcha xotirlarg‘a marg‘ub aylagil.*

*Garchi maqsudig‘a mubhamdur bayon
Qush tilin el ko‘ngliga qilg‘il ayon.*

*Kimga ondin hosil o‘lsa muddao
Lutf etib Foniyni ham qilsa duo.*

*Ayla oning duosin mustajob
Ikkimizni ollidin olg‘il hijob.*

(Bayoni: Yo rab, dilni sehrlovchi sho‘xning vaslini menga nasib etding! Endi uni el ko‘ziga ham yoqimli et! Undagi maqsadni anglash qiyin bo‘lsa-da, qush tilini el ko‘ngliga ayon qilgil! Kimki undan muddao hosil qilib, Foniyni ham duo qilsa, uning duosini inobatga ol va o‘rtamizdagi pardani olib tashlagil!)

Bu iltijo oradan 500-yildan oshig‘roq vaqt o‘tgach, jahon miqyosida amalga oshdi. Zotan, Yer kurrasining turli yurtlarida yashayotgan shoirlar Foniyni - Navoiyni hurmatu ehtirom ila yodga olib, ruhiga duo qiladilar.

Shoir sha‘niga bag‘ishlangan mazkur ma‘naviy yodgorlikni tiklamoq ulkan ma‘suliyatni talab etadi. So‘z zalvori bois Navoiy va XXI asr jahon shoirlari orasidagi **“parda”** olinib tashlanadi. Jarayonning birinchi ishtirokchisi **Agness Lam** nafaqat Osiyoda, balki Yevropada ham mashhurdir. Uning **“Burgut parvozi”** she‘ri majmuaning ilk sahifalaridan o‘rin olgan. Ekvador shoirasi G. Vailkisning **“Burgut nigohi”** she‘ri ham shu mavzuga yaqin. Burgut kuch - qudrat timsoli. Egri chiziqlar yasab, samoga sayqal beradi; istasa pastda uchadi; uni hech kim yalqovlikda ayblay olmaydi.

Voqelikni to‘qib chiqarish usuli hozirgi davrgagina xos emas. Bu usul qadimdan mavjud. Afsona va ertaklarda ba‘zi obrazlar to‘qilganini bilamiz. Deylik, **“olbo‘ji”** ham to‘qima obraz. **“Lison ut-tayr”** da afsonaviy qush **Qaqnus** obrazi orqali hikmatomuz voqelik suvratlari chiziladi. Afsonalarda uqtirilishicha, qaqnusning jufti bo‘lmas ekan. Yonib ketgan **Qaqnus** o‘rnida jo‘ja paydo bo‘ladi va ulg‘ayadi. Tumshug‘idagi teshiklardan yoqimli soz ovozi eshitilarkan. Qaqnus umri bo‘yi sayrab, xas - xashak yig‘adi. Pirovardida, kuy avjiga shundoq chiqadiki, xonishidan yiqqan bisotiga o‘t ketadi; U kuyib, kulga aylanadi. Kuldan esa qaqnuscha bosh ko‘taradi. Navoiy anashu voqelikni nihoyatda nafis yo‘sinda tasvirlagan:

Chun navosig‘a yetishdi intiho

So ‘ngra tortib bir ajib o ‘tliq navo.

*Solur ermish ul uluq xirmanga o ‘t
Sokin o ‘lg ‘on manzilu maskanga o ‘t.*

*O ‘t alam tortar emish aflokka
Barq tushgandek xasu xoshokka.*

*Ul o ‘tun yong ‘ondek ul qush ham yonib
Parlari yaprog ‘lardek o ‘rtonib.*

*Ham o ‘zi, ham ul o ‘tunlar kul bo ‘lub
Yuz tuman juzv ul kuyordin kul bo ‘lub.*

*Chunki ul kullar o ‘kuldi tog ‘cha
Maxfiy ermish kulda bir qaqnus bacha.*

(Bayoni: “Kul ichida bekinib yotgan qaqnusbachcha asta qimirlab bosh ko‘taradi. Keyin qanotlar chiqarib, havoga ko‘tariladi, atrofga nazar tashlaydi. O‘rmonni ko‘radi, o‘tin yig‘ishga kirishadi. Umr bo‘yi o‘tin yig‘ib, oxirida bir dilkash un tortadi. Umr poyoniga yetgach, u ham otasi qilgan ishni qaytaradi”)

Navoiy Shayx F. Attorni avvalgi Qaqnusga (avvalgi tayrga - A.R.) o‘xshatib yozadi:

*Shayx go ‘yo keldi avvalgi **tayr**
Kim navo ichra qilib umrida sayr
Chekti oncha lahn aro dilkash navo
Kim simoin vahshu tayr aylab havo.*

Demak, Alisher Navoiy Attorni “**avvalgi tayr**”ga mengzar ekan, uni o‘ziga ota deb, o‘zini esa unga o‘g‘il deb bilib, **Qaqnusbachcha** deb ataydi:

*Men demonkim, ul otodur, men o ‘g ‘ul
Ul-shahi oliy sifat, men banda - qul,
Kim bu o ‘tqa ul kuyub avval nafas
Barcha olamga o ‘t ul soldiyu bas.*

Navoiy nazdida chin shoirlar o‘zi kuyib, boshqalarni kuydiradigan bandadir, ya’ni, Qaqnus jo‘jalaridir; ular Qaqnusga aylanishadi; yonadilar, kulga evrilib, kuldan yangi jo‘ja bosh ko‘taradi. Shu o‘rinda Navoiy muhim gapni aytgan:

*Yuz navo zohir qilib minqoridin
Barcha haqning yoshurun asroridin.*

O‘ziga, xirmanga dog‘i o‘t urub

Ham o‘zin, ham o‘zgalarni kuydurub.

(Bayoni: “Tumshug‘idan haqning yashirin sirlari haqida yuz xil navo chiqardi. U o‘ziga, ham xirmonga o‘t qo‘yib, o‘zini va o‘zgalarni kuydirdi”).

Asarda shoirlilik silsilasiga ishora qilinmoqda. Shayx Attor ketdi - Navoiy keldi, Navoiy ketdi - Mashrab keldi. Mashrab ketdi Cho‘lpon keldi. Cho‘lpon ketdi - Rauf Parfi keldi ... Silsilalarga nazar tashlasangiz, Qaqnus rivoyatlari real voqelikka aylanadi. Shayxga atalgan bu bob shoirlarga umrboqiylik tilash bilan yakunlagan :

Budur umidimki, bu so‘zi fano

Barcha kuygonga baqo yano.

Antologiyadan sevimli shoiramiz Halima Hudoyberdiyevaning “*Batamom uyg‘onsam*” she‘ri ham o‘rin olgani quvonarli. She‘rni o‘qiymiz:

Turayotgan qushga

O‘xshayman juda,

Qushlarga o‘xshayman,

Uyg‘onayotgan.

Ba‘zi tomirlarim

Hali uyquda

Ba‘zi tomirlarda

Qonlarim qotgan.

Uyg‘onish - o‘zni anglash, ziddi gumrohlikdir. O‘zini anglagan insongina - Ozod insondir. She‘rda aynan shu g‘oya ustivorlik kasb etgan va istak ruhida yakunlangan:

Batamom uyg‘onib

Ololsam edi

Uchib ketarmidim

Ko‘klarga qarab.

Lirik qahramon “*nelarnidir g‘udranib yurib*” gulday umrini boy berayotganidan afsuslanadi, nazdida kimningdir kuniga yarab yurishi chin uyg‘onish alomati emas - ko‘ngil ko‘klarni tilayveradi. Mustamlakachilik siyosati ostida ezilgan millat vakilasi sifatida Halima adabiyotning, xususan, she‘riyatning yillar mobaynida mafkura dastyoriga aylanib, tiriklik emas, tirikchilik darajasiga tushganiga achinadi, buni *chala uyg‘onish* sifatida gavdalantiradi.

Bir qarashda she‘r tuzilishi oddiygina. Lekin imo - ishoralar odamni chuqur o‘ylantiradi: odamzot batamom uyg‘onmas ekan, demak, parvozig

shaylanish chikora. Tafakkur erkinligi esa necha - necha yillarni talab etadi. Tafakkur tutqinligiga ilkis nuqta qo‘ymoq mushkul amaldir.

Shoira armoni aynan shu she‘rida o‘z ifodasini topibdi.

Halima Hudoyberdiyeva she‘rida **“batamom uyg‘onish”** atamasini qo‘llagan. Milliy she‘riyatimizda Uyg‘onish pallasi ibtido topganiga ko‘p vaqt bo‘lmadi. Bu borada jahonning ilg‘or shoirlaridan namuna olmoq joiz. Shuningdek, she‘riyat muxlislari ham uyg‘onish jarayoniga monand bo‘lmog‘i kerak. Aks holda, izlanishlar kutilganicha samara bermasligi aniq.

Hozirgi zamon dunyo shoirlari ijodi XX asr afsonavor ijodkorlari **Jeyms Joys, Frans Kafka, Sartr, Kamyu, Markes** ijodidan rang olgan, desak mantiqdan uzilmagan bo‘lamiz. Bu jarayon chuqur kuzatuvlarni taqozo qiladi. Jumladan, **V. Plamb** she‘riyatida **Kafka** qalamiga mansub **“Jarayon”** asari ta‘sirini bor, deya olamiz :

Nedir demoqlikka haqliman:

Uyi kuygan qushchaman go‘yo.

Endi bir boshimga milyon ko‘z kerak,

Bilganim shu, chorbozorda turgan xodima

Menga berdi ortiqcha baho.

Bu turdagi she‘rlar o‘zbek o‘quvchisi onggiga birdaniga yetib bora olmaydi. Negaki, o‘zbek mentalitetida sobiq sho‘rolar siyosati izlari batamom o‘chgan emas. Halima bejiz **“batamom uyg‘onsam”** demagan. Sharq va G‘arb o‘zaro solishtirilganida tafovut katta ekanligini payqaysiz.

She‘riyatda ayanchli hodisa **soxta talqin**dir. Buning voqelikda qaror topishi **Dil va Tilning** bir bo‘lmasligidir. Soxta vatanparvarlik, haqiqatparastlikni **So‘z san‘atiga** tushgan **Kuya** deyish mumkin. Shuning uchun mutafakkir shoirimiz Hazrat Navoiy:

Bir bo‘lu, bir ko‘r, bir de, bir tila

Mayl qilma munda ikkilik bila,¹⁰ deb uqtiradi.

“Lisonut-tayr” da ruhoniylar olam manzaralari aks ettirilgan. Ya‘ni, hamma narsa - Ollohning zarrasi. Olloh yaratqilarida jilva qiladi. Olloh nazdida **Bulbul** va **Boyo‘g‘li** tengdir. Shu nuqtayi nazardan qaralganda yaratqilarning mohiyati o‘zgacharoq. XXI asr jahon shoirlari ijodida ham ana o‘sha xususiyat bo‘rtib ko‘rinayotgani o‘quvchini hayratlantiradi.

Jahonning turli yurtlarida yashayotgan shoirlar bilan aloqa bog‘lash, eng asosiysi, tarjima sifatida ta‘minlash, homiy topish, mualliflarga antologiyani yetkazish hazilakam amal emas. Bu borada A‘zam Obidovning mehnati tahsinga loyiq. O‘ylaymizki, bunday loyihalar va ijrolar bardavom bo‘ladi, o‘zbek

¹⁰ O‘sha manba. B.12.

adabiyotini jahon miqyosiga chiqishi yo‘lida o‘z xizmatini o‘taydi. Qachonlardir “*Lisonut-tayr*” dostoni asl shaklida G‘arb tillariga o‘girilsa, bu sa’y - harakatlarni yodga oladilar. Zero, o‘zbek badiiy tafakkurining cho‘qqisi sanalmish “*Lisonut-tayr*” dostoni umrboqiy asardir; dunyoni o‘ziga mahliyo aylab, sarhadlardan sarhadlarga o‘taveradi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Tanishuv (Kennenlernen).– Toshkent.“O‘qituvchi”.2000.–B.88;
2. Ilonbaliq. Lasst mir meine Träume (Deutsch-usbekische Anthologie Freiburger Lyrikerinnen).–Freiburg. 2008.–S.163;
3. Lorelay. Nizomiy nomidagi TDPU. – Toshkent. 2010. – B.304;
4. The Language of the Birds. International poetry anthology Tafakkur.– Toshkent.2011. – B.256.
5. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami.12 tom.“Lisonut-tayr”.O‘zRFA.Fan. – Toshkent.1996.
6. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. “Rus tili” nashriyoti. – M., 1981. – B.44.
7. A. Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami.12 tom.Lisonut-tayr.O‘zRFA.Fan. Toshkent.1996.– B.300.
8. Karimov I. A., Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch.“Ma’naviyat”.– Toshkent.008.–B.47.
9. Cary Dyck. Why our World Needs Poets like Alisher Navoi. P. 6-11;
- 10.Sodiqova T. Navoi’s Blooming Garden. The Language of the Birds. International poetry anthology Tafakkur.–Toshkent.2011.– B.12-19.